

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации.....	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности.....	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкоznания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур.....	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни».....	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralolingvistik vositalar talqini.....	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar.....	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Svegning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I.Saminov	
Oksymoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamlı asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.....	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 81 225.4:34

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SINTAKTIK SATHDAGI MAZMUNIY
MUNOSABATLARNING O'RGANILISHI XUSUSIDA

IN MODERN LINGUISTICS, THE STUDY OF CONTENT RELATIONS AT THE
SYNTACTIC LEVEL IS CONCERNED

В КОНТЕКСТЕ ИЗУЧЕНИЯ СОДЕРЖАТЕЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА
СИНТАКСИЧЕСКОМ УРОВНЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Xalilova Muyassarxon Talipovna

Farg'onan davlat universiteti katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d. (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning yirik olimlar tomonidan chuqur o'rganilganligi, bunda asosiy sintaktik birliklarning qismlari orasidagi mazmuniy munosabatlar hamda supersintaktik butunliklarni komponentlari orasida voqealanadigan semantik munosabatlarning o'ziga xos jihatlari to'g'risida nazariy fikrlar keltirilgan bo'lib, ularga munosabat bildirilgan.

Abstract

This article presents theoretical ideas about the in-depth study of the content Relations at the syntactic level by large scientists, about the content relations between parts of the main syntactic units, as well as about the peculiarities of the semantic relations that occur between the components of supersyntactic wholes, and reacted to them.

Аннотация

В этой статье подробно рассматриваются значимые отношения на синтаксическом уровне крупными учеными, даются теоретические представления о содержательных отношениях между частями основных синтаксических единиц, а также о конкретных аспектах семантических отношений, происходящих между компонентами суперсинтаксических целых, на которые дается ответ.

Kalit so'zlar: mazmuniy munosabatlar, sintaktik sath, nutqiy birliklar, komponentlar, qo'shma gap, matn, supersintaktik butunlik, mikromatn, mazmuniy sintaksis.

Keywords: content relations, syntactic line, colloquial units, components, compound sentence, text, supersyntactic whole, micromatn, content syntax.

Ключевые слова: содержательные отношения, синтаксический уровень, единицы речи, компоненты, составное предложение, текст, суперсинтаксическое целое, микротекст, содержательный синтаксис.

KIRISH

Bizni qurshab turgan moddiy olamdag'i mavjud barcha narsa-hodisalar, voqeliklar o'ziga turdosh boshqa jarayon va vaziyatlar bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mazkur aloqadorlik ularning turli darajadagi mazmuniy munosabatlarini ham belgilaydi va bu munosabatlar ularning o'ziga xos tabiatini, qirralarini, mohiyatini yanada yorqinroq ochib beradi. Bu semantik munosabatlar tildagi mavjud birliklarda u yoki bu tarzda aks etadi, voqealanadi. Ayniqsa, sintaktik sath birliklarda mazmuniy munosabatlar yanada to'liqroq tarzda, nutqiy birliklarning komponentlari orasida yuzaga chiqib, voqea-hodisalarning semantik mohiyatini, ularning farqli belgi-xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi.

TILSHUNOSLIK

O'tgan asr oxirlarida matn semantikasi, aniqrog'i, mikromatnlarning semantik xususiyatlari o'rganish kichik sintaktik sath birliklari qo'shma gaplar orqali ifodalanadigan mazmuniy munosabatlarni tadqiq etish asnosida shakllandi. Qo'shma gap ko'rinishlari orqali yuzaga chiquvchi mazmuniy munosabatlar, ularning uslubiy xususiyatlarni tadqiq va tahlil etish davomida mikromatn qismlarining o'zaro bog'lanishi va munosabatidan kelib chiqadigan mazmuniy munosabatlar haqidagi nazariyalar o'rtaqa tashlandi. Qo'shma gap komponentlari orasidagi mazmuniy munosabatlarni belgilash va o'rganish mikromatnlar – supersintaktik butunliklar qismlari orasida yuzaga chiquvchi semantik munosabatlarni aniqlashda va ularni izohlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METOD

XX asrning so'nggi choragida rus tilshunosligida sintaktik birliklarning semantik jihatlarini o'rganish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi, ko'plab tadqiqotlar maydonga keldi va bu sohada talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi. S.A. Shuvalovaning «Qo'shma gapdagi mazmuniy munosabatlar va ularning ifodalanish usullari» nomli monografiyasi rus tilidagi qo'shma gaplarda mazmuniy munosabatlarning yuzaga chiqishi tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, mazmuniy sintaksis uchun o'z vaqtida juda qimmatli ilmiy ma'lumotlar beradi. Ushbu monografiyada, eng avvalo, qo'shma gapda ifodalanadigan mazmuniy munosabatlar tasnifi hamda qiyosiy mazmun va uning ifodalanish modellari borasidagi qarashlar o'rinn olgan. Tilshunos olma S.A. Shuvalova mazkur asarida qo'shma gaplarning, deyarli, barcha turlariga murojaat qilib, ularni ishonarli lisoniy dalillar yordamida izohlab bergen.

O'zbek tilshunosligining hozirgi rivojlanish takomili uchun nazariy asos bo'lgan an'anaviy sintaksisda yirik olimlar tomonidan dastlab sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlar, qo'shma gaplar shakllanishining negizi haqidagi nazariyalar, tamoyillar yaratildi, sintaksisning qonuniyatlarini belgilandi, va u, asosan, formal nuqtai nazaridan o'rganildi. Biroq qo'shma gap qismlarining bog'lanishidan kelib chiqadigan turli mazmuniy munosabatlar tilshunoslar diqqat markazidan chetda qolmadi. Jumladan, akademik G. Abdurahmonov 1958-yilda nashr etilgan «Qo'shma gap sintaksisi asoslari» monografiyasida qo'shma gap komponentlarning birikish usullari, qismlarni biriktiruvchi vositalar va qo'shma gap qismlari o'rtasida yuzaga chiqadigan mazmuniy munosabatlar haqida fikr yuritib, bu mazmuniy munosabatlarning, avvalo, intonatsiya hamda biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi, ergashtiruvchi bog'lovchilar, ayrim bog'lovchi vazifasidagi ayrim leksik elementlarning, vositalarning qo'llanilishi orqali ifoda etilishini asoslab ko'rsatdi.

1987-yilda nashr etilgan Ayub Gulomov, Mazluma Asqarovalarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (Sintaksis) darsligida qo'shma gaplar strukturasi bayon qilinganda, ulardagagi mazmuniy munosabatlar haqida ham fikrlar bildiriladi. Qo'shma gaplarning har bir turi orqali ifodalanadigan mazmun umumlashtirilgan tarzda izohlash, payt, zidlash munosabati yoki o'rinn munosabati kabilarni ifodalashi jihatidan emas, balki har bir tur, chunonchi bog'langan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap kabi har bir turining o'z ichida komponentlarning bog'lanishi usullaridan kelib chiqqan holda, yuzaga chiqadigan mazmuniy munosabat ko'rinishlari tahlil etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qo'shma gaplarning o'ziga xos yana boshqa bir muhim jihatları – nutqda ularning mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda, qo'llanish o'rinnari, ifoda imkoniyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan A. Mamajonovning «Qo'shma gap stilistikasi» monografiyasi yaratildi. Bu asar sintaktik stilistikaning qator dolzarb muammolarini hal etishga karatilgan bo'lib, unda nutq turlarini shakllantiruvchi vositalarning qo'shma gaplar tarkibida qo'llanishi, qo'shma gaplarning hissiyta'sirchanligini oshirishdagi vazifalari, qo'shma gaplarda qo'llanuvchi hamda qo'shma gaplarning bir butun tarzda ma'lum sintaktik-stilistik figuralar vazifasida qo'llanish xususiyatlari bir butun sistema sifatida yoritib berildi. Ushbu monografiyada bildirilgan izlanishning muhim e'tiborli jihat shundan iborat ediki, unda yuqorida olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganilmagan mazmuniy munosabatlarni umumlashtirishga harakat qilgan va qo'shma gap qismlari orasida yuzaga chiquvchi quydagicha mazmuniy munosabatlarning mavjud bo'lishini lisoniy dalillar bilan isbotlab bergen:

biriktirish mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
payt mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;

shart mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
sabab-natija mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
izohlash mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
zidlik mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
qiyoslash mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
o'xshatish mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
maqsad mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
ayirish mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
daraja-miqdor mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
tarz mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplar;
polisemantik qo'shma gaplar.

Shuningdek, sintaktik sathda qo'shma gaplarning nutqdagi voqealanishi, ularning semantik-stilistik xususiyatlari, bir umumiy mazmunni ifodalashda bir necha turdag'i qo'shma gaplarning parallel ravishda ishlatalish xususiyatlarini tadqiq etishda olim katta (makro) sintaksis birlklari, nisbiy mustaqil gaplar guruhi – matn birlklari ularning funksional turlariga oid nazariy qarashlarni o'rtaqa tashladi hamda mikromatn mazmuniy xususiyatlarining yuzaga chiqish omillarini ko'rsatib o'tdi.

Olamdag'i barcha voqealari, hodisalar bir-biri bilan u yoki bu tarzda bog'langan. Mantiqan boshqa bir hodisa bilan aloqadorlikka ega bo'lmagan hodisaning o'zi yo'q. Bu aloqadorlik esa turli jihatlarga ko'ra mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, bir hodisa boshqasining natijasi sifatida kelib chiqishiga, sodir bo'lish paytiga, maqsadiga yoki boshqa jihatlariga ko'ra bog'liqlikka ega bo'ladi...

Yuqorida fikrlar bayonidan ko'rinish turibdiki, XX asrning oxirgi o'n yilliklarda sintaksisda sodda va qo'shma gaplarning shakli va mazmuniy tuzilishi, ularni shakllantiruvchi qismlar orasidagi semantik munosabat masalalarini yoritishga, mazmundan shaklga tomon o'rganish tamoyillariga bag'ishlangan yangicha ta'limalar vujudga keldi.

Asosiy sintaktik birlklar doirasidagi bunday qarashlar professor A.Nurmonov tomonidan o'rtaqa tashlangan bo'lib, olim grammatik birlklarning mazmun jihatidan o'rganishga bag'ishlangan yangicha ta'limalarda, asosan, sodda va qo'shma gaplar tuzilishining uning shakliy-mazmuniy tuzilishi bilan muvofiqlik va nomuvofiqlik holatlarini o'rganish asosida tahlil qilish yo'llarini ko'rsatib o'tdi hamda sintaktik birlklarni semantik jihatdan tadqiq etish usullarini belgilab berdi. Ushbu tadqiqot sintaktik butunlik qismlari orasida yuzaga chiquvchi mazmuniy munosabatlarni belgilashda ham muhim ahamiyatga ega edi. Olim gaplarni mazmundan shaklga tomon o'rganish va tahlil qilishning tamoyilini quyidagicha tavsiflaydi:

«Grammatik birlklar tadqiqotchi tomonidan qaysi tomonidan o'rganilishiga ko'ra, grammatica faol, nofaol turlarga bo'linadi. Shakldan ma'noga qarab tadqiq qilish usuli semasiologik usul hisoblanadi. Bu usulda ma'lum grammatic shakl qanday ma'no yoki mazmun ifodalashi haqida gap boradi. Yuqorida usulda grammatic birlklarni o'rganish nofaol grammatica sanaladi. Aksincha, mazmundan shaklga tamoyili bilan ish ko'ruchchi grammatica faol grammatica hisoblanadi. Faol grammaticada u yoki bu mazmun qanday yo'llar bilan moddiylashuvni mumkinligi aniqlanadi. Xuddi shu yo'naliш bilan bog'liq ravishda grammatica mazmuniy (mental), shakliy (formal) va vazifaviy (funksional) grammaticaga bo'linadi.

Mazmuniy grammatica mazmundan shaklga tamoyiliga amal qiladi. Obyektiv borliqning ongda aks etishi va ongda aks etgan obyektiv olam unsurlari umumlashgan obraslarning tilda qanday o'z ifodasini topishini mazmuniy grammatica o'rganadi. Shakliy grammatica esa semasiologik tamoyil, shakldan mazmunga tamoyili asosida ish ko'radi».

A.Nurmonov mazmuniy munosabatlarning voqealanishi to'g'risidagi nazariyalarni bayon etar ekan, mazmuniy-mantiqiy munosabatlarning dastlab qo'shma gap qismlari o'tasida yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: «...ergash gapli qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga qaraganda, uzvlari o'tasidagi mazmuniy-tarkibiy munosabatlarni tabiatiga, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi mazmuniy, mantiqiy va sintaktik mexanizmlarning juda ancha murakkabligiga ko'ra farq qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarni baholashda jiddiy muammolar anchagini...». Shunga ko'ra ergash gapli qo'shma gaplarni baholashda va ularni tasrif etishda hanuzgacha munozarali tortishuvlarning davom etayotganligiga jiddiy sabab, ergash gapli qo'shma gap qismlari orasidagi turli mazmuniy munosabatlarning ifodalanganligida, deb asoslab ko'rsatadi.

TILSHUNOSLIK

Olim voqealar o'tasidagi munosabatlarning ifodalanishi haqidagi nazariy fikrlarini davom ettirib, muayyan voqealarning ifodachisi gap bo'lsa, voqealar o'tasidagi mazmuniy munosabatlarning ifodachisi qo'shma gap ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi: ... Bir hodisa boshqasi bilan kelib chiqishiga, sodir bo'lismay paytiga, maqsadiga yoki boshqa jihatlariga ko'ra bog'liqlikka ega bo'ladi. So'zlovchining (yoki til egasining) nutqiy maqsadi hamisha ham bu bog'liqlikni bevosita ta'kidlashga qaratilavermaydi. Agar mazkur bog'liqlikni ta'kidlash zaruriyati tug'ilsa, so'zlovchi, eng avvalo, qo'shma gaplarga murojaat qiladi.

Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, izohlash kabi mazmuniy munosabatlarni ifodalanadi. Bu munosabatlarni qo'shma gapning mavjud uch turida komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rindaniki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikativ birliliklar orasida o'matiladi. Matnda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazalni sintaktik butunliklar, abzatslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'tasida yuzaga chiqib, uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi. Tekstni tashkil etuvchi nisbiy mustaqil gaplar orasida mustahkam mazmuniy aloqa o'rnatiladi.

Biz o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini yanada ochib berish uchun, uning ichiga chuqurroq yondashsak, voqealar o'tasidagi munosabatning to'liq aks ettirilishida bir necha nisbiy mustaqil gaplar (sodda yoki qo'shma gaplar)ning mazmunan birikuvidan tashkil topib, kichik bir «mazmuniy yadro» – kichik bir mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi, umumiyligi tugal bir fikri ifodalashga qaratilgan nutq birligi – supersintaktik butunliklar qo'shma gaplarga qaraganda, har qanday mazmunni atroficha va mukammal holda ifodalaydi. Mikromatnlar ma'lum voqealarning yuzaga kelish maqsadini yoki sababini ko'rsatish, o'mini ifodalash, aniqlash, to'ldirish izohlash bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan mazmun munosabatini ifodalamay, balki uning komponentlari o'zaro munosabatga kirishib, voqealarning o'tasidagi munosabatlarni mazmunan tugallangan holda, bor tafsilotlari bilan ifodalashga xizmat qiladi.

O'tgan davr mobaynida matn tilshunosligiga doir tadqiqotlarda supersintaktik butunliklarni mazmun tomonidan o'rganish A.Mamajonov, M.Abdupattoyevning keyingi qo'llanmalarida o'z nazariy ifodasini topdi.

XULOSA

Matn butunligining eng asosiy xususiyatlari sifatida uni tashkil etuvchi birliliklar, qismlar (komponentlar) o'tasida, birinchi navbatda, mazmun jihatdan bog'lanish, komponentlar birikuvi orqali mazmuniy yaxlitlik bo'lishi shart. Mikromatnlar orqali ifodalanadigan to'liq fikr, tugal mazmun uning tarkibidagi birliliklarning mantiqan biri ikkinchisini taqozo etib kelishini ta'minlashi lozim. Sintaktik butunliklarni tashkil etuvchi komponentlar o'tasida semantik bog'lanish mavjud bo'lib, komponentlarning birikishi natijasida turli mazmuniy munosabatlarni ifoda etiladi. Bunday mazmuniy munosabatlar nutqda ma'lum bir vaziyatlarning o'zaro aloqadorlik asosida namoyon bo'lishini ta'minlab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Абдураҳмонов Ф. Кўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент, 1958.
- Мамажонов А., Абдулаттоев М. Матн синтаксиси. Ўқув-услубий кўлланма. –Фарғона, 2002.
- Мамажонов А. Кўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990, 72 – 89- бетлар.
- Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, II жилд. – Т.: «Akademnashr», 2012. – Б. 178 – 189.
- Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992. - Б.215.
- Шувалова С.А. Смыковые отношения в сложном предложении и способы их выражения. – М.: Издво МГУ, 1990.
- Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент:Ўқитувчи, 1987. – Б.159 – 187.